

## USTYURT PLATOSI TABIATINING O`ZIGA XOS SIRLARI

Usmanova R - Qarshi davlat universiteti dotsenti

Rajabova F - Qarshi davlat universiteti talabasi. O'zbekiston.

**Annotatsiya:** maqolada Ustyurt platosi tabiatining o'ziga xos jihatlari, geologic va geomorfologik tuzilishi, iqlimi va boshqalari haqida bayon etilgan. Platodagi qiziqarli geografik obyektlarning mavjudligi va ularni o'rganilish muammolari qarab chiqilgan. Ushbu platoda hududni shakllanishida tabiiy omillarning roli yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** geologic, arxeologik, Tetis dengizi, geoglif, skat, tosh qo'rg'on, sho'rxok, botqoq, urochishe, botiq.

### УНИКАЛЬНЫЕ СЕКРЕТЫ ПРИРОДЫ УСТЮРТСКОГО ПЛАТО

Усманова Р. – доцент Каршинского государственного университета

Раджабова Ф. – студентка Каршинского государственного университета.

Узбекистан.

**Аннотация:** в статье рассказывается об особенностях природы Устюртского плато, геологическом и геоморфологическом строении, климате и многом другом. Рассмотрены вопросы существования интересных географических объектов на плато и проблемы их изучения. В статье освещена роль природных факторов в формировании рельефа этого плато.

**Ключевые слова:** геологический, археологический, море Тетис, геоглиф, скат, каменная крепость, солончак, болото, урочище, впадина.

### UNIQUE SECRETS OF THE USTYURT PLATEAU NATURE

Usmanova R - Associate Professor, Karshi State University

Rajabova F - Student, Karshi State University. Uzbekistan.

**Abstract:** The article describes the nature features of the Ustyurt plateau, its geological and geomorphological structure, climate, and much more. The issues of the existence of interesting geographical objects on the plateau and the problems of their study are considered. The article highlights the role of natural factors in shaping the relief of this plateau.

**Keywords:** geological, archaeological, Tethys Sea, geoglyph, slope, stone fortress, salt marsh, swamp, tract, depression.

**Kirish.** Bugungi kunda zamonaviy geografiya tabiiy- hududiy komplekslar hamda hududiy ishlab chiqarish komplekslarining rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etadigan va o'rganadigan, nazariy asoslariga ega fandır. Zero, har qanday geografik obyektning o'ziga xoslik xususiyati uning joylashgan o'rni hamda taraqqiyot tarixi bilan bog'liq. Ustyurt keyingi yillarda o'zining iqtisodiy

salohiyati bilan ajralib turadigan tabiiy geografik o'lkalardan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, Ustyurtning murakkab, keskin kontinental iqlimi va noqulay geografik sharoiti bu regionning o'zlashtirilishida eng asosiy to'siqlarning biri bo'lishiga qaramasdan iqtisodiy ahamiyati muhim omillardan hisoblanadi. Binobarin, tabiiy resurslarga juda boy ekanligi, hudud kelgusida tadqiqot ishlari olib borish talab qiladigan geografik obyektlar qatoriga kiradi.

Ammo uning murakkab geologic rivojlanish tarixiga bog'liq tabiatini haqidagi ma'lumotlarni o'rganishda olimlar tomonidan hali ochilmagan sirlarning ko'pligi va bilish qiziqarli ekanligini e'tiborga olib Ustyurt platosi tanlangan.

**O'rganilganlik darajasi.** Ustyurt hududning tabiati va o'ziga xos rayonlari to'g'risida dastlab N.A.Gvozdetskiy (1961), L.N.Babushkin va N.A.Kogay (1969), A.S.Saidov (1965), J.A.Xoshimov (1966), T.Jumaboyevlarning (1978), A.Rahmatullayev (1979-2009) va boshqalarning ishlarida ancha mufassal yoritilgan. Bugungi kunda ham olimlar tomonidan hududda tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Asosiy qism.** Yer sharidagi eng qiziqarli va g'aroyib xususiyatlarga ega joylaridan biri - bu Ustyurt platosi hisoblanadi. O'rganilayotgan obyekt O'rta Osiyoning g'arbiy qismida katta hududini egallab yotadi. Ustyurt platosi qadimgi Tetis dengizining o'rni hisoblanadi. Geologlarning taxmin qilishicha Ustyurt platosining o'rni 20 milliondan 60 million yillar oldin dengiz chekinishidan hosil bo'lgan.

Ustyurt platosi O'rta Osiyo o'lkasida Kaspiy va Orol dengizlari orasida joylashgan hududni o'z ichiga olib, O'zbekistonning shimoli-g'arbini egallaydi. Ustyurt platosining umumiy maydoni 160 ming km<sup>2</sup> (ba'zan 200 ming km<sup>2</sup> ga yaqin, deb berilgan) bo'lib, O'zbekiston va Qozog'iston hududlarida joylashgandir. Shundan, 40 ming km<sup>2</sup> maydoni Ustyurtning janubi-sharqiy qismi O'zbekiston hududidagi Qoraqalpoq Ustyurti deb ham yuritiladi.

Ustyurt arid-denudatsion plato hisoblanib, g'arbda Mang'ishloq yarimoroli bilan, sharqda Orol dengizi bilan chegaralangan. Uning shimoliy chinklari g'arbda O'likqo'ltiq sho'rlikidan boshlanib, shimoli-sharqqa qarab Shagan daryo

vodiysigacha davom etadi. So'ngra shimoliy chegara Katta Bo'rsitq qumligiga borib taqaladi.

Ustyurt platosi Kaspiy va Orol dengizlari oralig'ida barcha tomonlardan tabiiy chegara, ya'ni chinklar bilan chegaralangan. Ustyurt platosi ma'muriy jihatdan Qozog'istan Respublikasi (shimoliy-g'arbiy qismi), Turkmaniston Respublikasi janubiy qismining ozgina hududi va O'zbekiston Respublikasiga (janubiy sharqiy qismi) tarkibiga kiradi. Ustyurtning O'zbekiston hududidagi janubi-sharqiy qismi Qoraqalpoq Ustyurti deb ham yuritiladi.

Ustyurt platosi (ayrim botiq va balandliklarni hisobga olmaganda) O'rta

Osiyodagi eng katta va tekis hudud hisoblanadi. Bu yerda tekisliklar, tepaliklar, daralar va siyrak vohalarni ham uchratish mumkin. Ustyurtning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, uning deyarli hamma chekkasi jarlik yonbag'ir (chink) bilan tugallanadi. Chinklarning nisbiy balandligi 50-150 m, Orolbo'yida esa 190 m gacha boradi. Ularning kengligi esa bir necha yuz metrdan 1,5 km gacha boradi. Chinklar tektonik jarayonlar hisoblanib, dengizning abrazion faoliyati va qadimgi daryolar eroziyasi natijasida vujudga kelgan. Chinklarda uchlamchi davrning ohaktosh, mergel va gildan tarkib topgan gorizontalar yotqiziqchiliklari ochilib qolganligini uchratish mumkin. Chinklar yonbag'irlarda tik jarliklar hosil qilgan holda Ustyurtning tabiiy chegarasi hisoblanadi.

Ustyurtda geografik parallellar bo'ylab yo'nalgan bir necha tektonik strukturalar mavjud. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, karst relyef shakllari Ustyurtda keng tarqalgan bo'lib, ular yerning har xil chuqirlar va jinslarning cho'kishidan paydo bo'lgan. Ularning eng kattalari Ustyurtning Qoraqalpoqistonga tegishli qismida joylashgan. Borsakelmas, Shaxpaxti, Shorcha Asakaovdan va Sariqamish ko'lidan iborat. Janubiy qismiga Qoplonqir va Sariqamish botig'i kirib borgan. Uning shimoliy qismida Sam, Matayqum, Uchtagan qumliklari va bir qancha sho'rxoklar (Qo'shbuloq, Osmontaymatay, Sam va boshqalar) hamda taqirlar mavjud. Ustyurtda karst va karst-suffozion relyef shakllari (karst voronkalar, botiqlar, g'orlar) vujudga kelgan.

Ustyurt platosi O`rta Osiyoning g`arb qismidagi tekislik bo`lib, mo`tadil va subtropik iqlim mintaqalari tutashgan joyida joylashgan. Shuning uchun uning iqlimi oraliq iqlim. Ustyurga shimoldan keladigan antisiklonlarga ochiq bo`lganligi uchun uning iqlimi juda o`zgaruvchan, qishi sovuq, yozi issiq va quruqdir. Plato iqlimi juda ham kontinental bo`lib, haqiqiy qishning uzoq davom etishi (4 oy), yozgi havo haroratining baland bo`lib, yog`inning kamligidir. Ammo Ustyurtda yillik yog`in-sochin miqdori (80-90 mm) fasllar bo`yicha deyarli bir tekis taqsimlangan. Platoda doymiy oqar suvlar mavjud emas, ammo vaqtinchalik, mavsimiy suvlar bor. Ustyurt hududida yer osti suvlarining sathi ancha chuqurda joylashgan, ularning sathi yil davomida doymiy ekanligini aniqlangan. Yer osti suvlari aholi va xo`jalik ehtiyojlarini suvga bo`lgan talabini qondirishda muhim ahamiyatga ega.



Ustyurt platosi tabiatida faqat shu hududga xos bo`lgan, xaligacha ochilmagan sirlar yashiringan butun olamni hayratga soluvchi g`aroyibotlari mavjud. 1986 yilda olimlar tomonidan quruqlikni aerokosmik o`rganish

*1-rasm. Ustyurt platosining geogliflar.* vaqtida tasodifan Beynau va Sai-Utes qishloqlari orasidagi 100 km masofada sirli belgilarni uchratganlar. Ustyurt o`qlari Manaysor sho`rxogi (Doniztau chink) ning atrofida  $46^{\circ}13'22$  shimoliy uzoqlik va  $56^{\circ}09'39$  sharqiy uzoqliklar orasida joylashgan. Bu tasvirlar uchburchak chizmalar yarim oylarga o`xshash ulkan halqalar bilan tugaydigan diametri 10 metr bo`lgan uzun o`q uchlarini ko`rishgan. Bu chiziqlar shimolga ishora qiluvchi 900 m gacha uzunlikdagi o`qsimon belgilarga tutashgan. Bu o`q tizimi yuz kilometrdan ortiq masofaga yoyilgan. Bugungi kunda bu geogliflarning kelib chiqishi haqida ikkita nazariya bor: 1. Uchburchaklar ov qilish uchun ishlatilgan. Arxeologlar Ustyurt "o`qlari"ning kelib chiqishi haqida bir to`xtamga kela olmaganlar. Taxminlarga ko`ra, bular qulon va sayg`oq podalarini katta miqdorda ovlash uchun qurilgan inshootlar bo`lishi mumkin.

2. O'zga sayyoraliklar nazariyasi. Bu yerlarda sayyohlar ko'p yillar davomida tungi osmonda sirli chiroqlar ko'rayotganligini ta'kidlashgan. Bundan tashqari plato ustida shu uchburchak chizmalar kosmik kemalar uchun yo'l ko'rsatuvchi ustunlar b'lib xizmat qilganligini va qo'nish chizig'iga ishora qilganligini ta'kidlashadi.



*2-rasm. Tuzbair tog`ida inson boshi (Sfenks)ga o`xshash ko`rinishi.*

**Tuzbair Sho`ri**—sho`r botqoqlik Mang`ishloqdagi qoyali cho`qqining g`arbiy chekkasi yaqinida Tuzli kvartira joylashgan. Qoya toshlari Quyosh botganda qizil rangda, kunduzi esa qor kabi oq tuz kristallari qimmatbaho toshlar kabi ko`rinadi. Tuzbair tog`i mashhur Sfenksning ya`ni, inson boshi bilan Misr sheriga o`xshab ketadi.



*3-rasm. Qum skati. Qum skati.* Ba`zan

sayyohlar platoning Qozog'iston qumlarida yirtqich hayvon yashashi haqida xabar berishadi. Bu olmos shaklidagi ko`zsiz va og`zisiz bo`lgan skatni eslatadi. Uning rangi uni qumga o`xshaydi va balandligi 1,5-3



metrgacha ekanligi ba`zi sayyohlar tomonidan taxmin qilingan. Bu qum skat yolg`iz sayohatchilarga hujum qilganligi va juda katta kuchga egali ta'kidlanadi.

*4-rasm. Torish-Tuzbair tosh sharlari.*

**Torish urochishesi** – bu yerda mukammal yumaloq toshlar bilan qoplangan vodiylar bor. Ushbu toshlar olimlar tomonidan o`rganilganda, ularning yadrosi Tetis dengizining qoldiqlaridan iborat ekanligi aniqlangan. Bu toshlarning tarkibiga ko`ra, yuzasiga qum va loy yopishgan bo`lib, sharlarning yoshi esa 200 million yilga borishi mumkinligi aniqlangan. Boshqa tadqiqotchilarning nazariyasiga ko`ra esa, bu toshlar tektonik harakatlar natijasida jinslarning erib, siqilishidan paydo bo`lganligi ta'kidlanadi.

**Tosh urushlari** - 1983 yilda geologlar Bayte bulog'ida tosh qo'shinni topdilar. Ushbu jang butlari deyarli vayron bo'lgan, ammo ularning kelib chiqishi



tarixi noma'lumligicha qolmoqda. Bu yerdagi

devorlarida qurol-yarog'lar va jang holatidagi otlarningtasvirlari topilgan. Plato ustida tez-tez noma'lum *5-rasm. Tosh urushlari.*

uchuvchi jismlar va chaqnashlar paydo bo'lib turishi aniqlangan. Ushbu chaqnashlarni o'rgangan mutaxassislar (ufologlar)ning ta'kidlashicha, bu yorug'lik atrofni yorituvchi kichik, yorqin nurlarda go'yoki ufqdan tashqarida paydo bo'ladi.



Buyuk Ipak yo'li uchun ulkan Ustyurt platosi xavfli va jonsiz joy hisoblangan. Bu hudud bo'ylab o'tadigan karvonlar odatda Ustyurt platosini janubidan, O'zboy daryosi bo'yidan aylanib o'tgan yoki Orol dengizi

*6-rasm. Urga burunidagi mayoq poydevori va Qo'rg'oncha qal'a xarobalari.*

sohilini yoqalab, shimolga qarab yo'l olishgan. Bu karvon yo'li esa gullab-yashnagan davrda kimsasiz, buloq va quduqlarsiz yuzlab kilometr ga cho'zilgandir. O'sha davrlardan bugungi kungacha ikkita yodgorligi – Qo'rg'oncha qal'a xarobalari va Urga burunidagi mayoq poydevori saqlanib qolgan.

**Xulosa.** Bulardan tashqari Ustyurt platosida arxeologik yodgorliklar majmuasi anchagina bo'lib, eng so'nggilari X-XV asrlarga oiddir. Masalan, butun bir -

massagetlarning yodgorliklari, qo'rg'onlar, qabrlar, diniy inshootlar topilgan.

Yuqoridagi obyektlardan sayyohlikda va ilmiy tadqiqotlarda foydalanganimizda har bir regionning ekologik sharoitini buzmasdan, ularga minimal darajada ta'sir ko'rsatishimiz kerak. Bu hozirgi davrdagi ekologik inqiroz sharoitida zamon talabi va bizning tabiat va kelajak avlod oldidagi eng asosiy vazifalarning biri bo'lib hisoblanadi.

### **Foydalanilagan adabiyotlar**

1. Baratov P. va boshqalar. O`rta Osiyo tabiiy geografiyasi // O`quv qo`llanma. T.: "O`qituvchi" 2002. 639 b.
2. Агаханянц О. Е., Юсуфбеков А. Главные черты природы Памира // Страны и народы востока. Вып. XVI. — 1975. — С. 26-40.
3. Гвоздецкий Н. А. Голубчиков Ю. Н. Горы. — М.: Мысль, 1987. — С. 201-204. — 399 с.